

SHAXS YUZ TASVIRINING HAQIQIYLIGINI TASDIQLASH USHLUBLARI

UDK 681.518.5

Muldanov Fayzi Riskulovich Katta o‘qituvchi

Berdiqulov Otajon Ravshan o‘gli (talaba)

Jizzax politexnika institutifayzimuldanov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqilgan dasturning komponentalari uchun qo‘yilgan asosiy maqsad va bajarishi lozim bo‘lgan ish vazifalari hamda videoteknologiyalarda komponentalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik tuzilmasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Tayanch iboralar: Robot ko‘z analizatori, identifikatsiyalash komponentalari, Dasturiy ta‘minot jamlamasi (DTJ). Biometrik texnologiyalar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12749948>

Biometrik texnologiyalar asosida shaxs yuz tasvirini haqiqiyligini tasdiqlash uslublarini tamoyillarini yoritish jarayonida faqat yuz tasvirini haqiqiy ob‘ekt sifatida tasdiqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek ayrim biometrik texnologiyalar tizimida shaxs yuzining harakati, mimikasi, yuzdagi o‘zgaruvchi parametrlar sifatida ob‘ektga kirish va chiqishni nazorat qilish jarayonida, shaxsini tasdiqlash zarurati ro‘yhatdan o‘tganligi inobatga olingan holda amalga oshiriladi (1- rasmda) keltirilgan.



1-Rasm. Shaxs yuz tasvirining haqiqiyligini tasdiqlash.

Bunda ikkita tizim amalga oshiriladi va quyidagicha:

- shaxs yuz tasvirini haqiqiyligini ob‘ekt sifatida belgilab o‘tkaziladigan identifikatsiya taxlili tekshiruv jarayonlari tizimi aniqlashtiriladi;
- shaxs yuz tasvirining haqiqiyligini oby‘ekt sifatida **tasdiqlab** uning

natijasi amaliyot yuzasidan dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxs yuz tasvirining haqiqiylikni tasdiqlash uslublarning tahlili quyidagicha:

1. Yuz tasvirni haqiqiylikni tasdiqi identifikatsiyalash tahlili tekshiruv bo‘lib, uning natijasida shaxsni yuz tasviri haqiqiylik asos bo‘lmasada, boshqa protsessual harakatlarni o‘tkazishga asos bo‘ladi.

2. Ob‘ektlar shaxsning tashqi tuzilishini aks ettiradigan tasvirlar, ularning ko‘chirmalari, yuzning ayrim qismlarining qoliplari va ularning rentgen nurlarida olingan tasvirlari olinadi.

3. Rassomchilik, chizmachilik va yig‘ma (sun‘iy portretlar) ham olinishi mumkin. Lekin bular o‘tkaziladigan tadqiqot tekshiruvining natijalari bir muncha cheklangan bo‘ladi. Fotoportretlarni tadqiq etish, ularni ko‘zdan kechirib umumiy hususiyatini qayd etishlikdan boshlanadi: tasvirning shakli, o‘lchovi, qanday yozuvlari borligi, tasvirlangan shaxslarning jinsi, taxminiy yoshi, tasvir ishlangan vaqt va boshqalar aniqlanadi.

4. Tekshiriluvchi shaxsning yuz tasviri bilan shunga o‘xshash bo‘lgan yoki namuna vazifasini bajaruvchi tasvirlarni tadqiq etish, ularda tasvirlangan bitta shaxsning aynanligini aniqlash uslubi, umumiy tadqiqot tekshiruv uslubi yotidan bir muncha o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari bilan farqlanadi. Jumladan, qiyosiy-uslubiy modellashtirish, yuz tasvirlarni bir-biriga ustma-ust tushirish, birlashtirish va boshqa texnik usullar bilan amalga oshiriladi.

5. Tashqi tuzilish alomatlarining bir-biriga nisbatan ko‘zg‘almas belgilari bo‘yicha ayni bir xil o‘lchamga keltirilgan taqqoslanayotgan tasvirlarni birlashtirish (montaj) usullari ham mavjud.

6. Bir xil shaklda tayyorlangan yuz tasvirlarni taqqoslashda grafik yasash uslubi ham samaralidir. Taqqoslanayotgan ob‘ektlardagi bir guruhga tegishli belgilar aniqlanib, ulardagi uchburchak, romb, trapesiya va boshqa geometrik shakllarning (bir-biriga to‘g‘ri kelishi) tengligi tasvirdagi shaxslar yuz tasviri mazkur izlanuvchi shaxsning yuz tasviri ekanligi, ya‘ni aynanligi aniqlanadi.

7. Shuningdek, grafik identifikatsiyalash tahlili algoritmlarini tuzish uslubi ham mavjuddir. Bu uslub tekshirilayotgan ob‘ektning o‘ziga xos bo‘lgan nuqtalari, belgilar tizimi, istiqbolli muvofiqlik yoki aksini kuzatish uchun tavsiya qilingan.

8. Mazkur tadqiqot turini o‘tkazishda ma‘lumotlarni o‘zida aks ettiruvchi manba ob‘ektlar ham yuborilishi mumkin. Shulardan eng ko‘p tarqalgan turi, shaxs qiyofasini so‘z- nutq yordamida tasvirlashdir. So‘z yordamida tuzilgan portretlar turli protsessual hujjatlarda (bayonnomalar, so‘roq ko‘rsatuvlarida) ro‘yhatga olish kartalarida va tegishli mutaxassis tomonidan tuzilgan ma‘lumotlarda aks ettirilgan holda tasvirlanadi. So‘z yordamida tuzilgan tasvir asosan anatomik belgilar asosida shakllanadigan, ba‘zida unga shaxsning ayrim anatomik va funksional belgilari bilan bir qatorda alohida alomatlar (hollar-chandiqlar, kasallik alomatlari) ham kiritiladi. Bunday ma‘lumotlar tergov harakatlarining (so‘roq, ko‘zdan kechirish, guvohlantirish, tanib olish uchun ko‘rsatish) bayonnomalarida, jinoiy ro‘yhat kartalarida va boshqa hujjatlarda bo‘lib, ulardan tadqiqot o‘tkazishda keng foydalanish mumkin.

9. Tadqiqot davomida dastlab tasvirlarni alohida o‘rganishdan boshlanadi, so‘ng har bir tekshirilayotgan tasvirdagi tashqi qiyofa belgilari aniqlanib, o‘zaro o‘xshash belgi-tuzilish xususiyatlari solishtirilib tahlil qilinadi. Belgilarning o‘zaro o‘xshashligi yoki aksincha har xil bo‘lishi sharxlanib o‘xshashlik yoki o‘xshamaslik sabablari asoslantiriladi. Tasvirlangan shaxslar yuz tasviri qiyofasi bir shaxsga tegishlimi yoki har xil o‘xshash bo‘lgan shaxslarning tasvirimi - bu haqida xulosa qilinadi. Tekshirilayotgan tasvirdagi umumiy va xususiy belgilar yig‘indisi bir-birini takrorlasa (bir xilda ekanligi kuzatilsa), tasvirlardagi tasvir bitta shaxsga tegishli ekanligi, ya‘ni qidirilayotgan shaxsning aynanligi tasdiqlanadi. Belgilarning ba‘zilari o‘xshash bo‘lsayu, ba‘zilari mutloq boshqa shakl, o‘lchov va x.k. bilan tasvirlansa, identifikatsiyalash tahlili masalasi inkor qilinadi.

10. Identifikatsiyaning asosiy bosqichi tekshirilayotgan tasvirdagi shaxsning individual o‘ziga xos bo‘lgan va o‘zgarmaydigan belgilarini qayd etib ularni taqqoslab tekshirish va natijasini baholashdir. Tasvirda tashqi qiyofa belgilarining barchasi aks etmasligi, uni tayyorlashda yorug‘likning turli sharoiti, foto - suratning sifati kabi holatlar identifikatsiya tahlili uchun zarur bo‘lgan yig‘indisini bir muncha cheklab qo‘yadi. Mana shu sababli identifikatsiya taxlilining mazkur bosqichini o‘tkazishda turli optik asboblar, yorug‘lik sharoitini moslovchi qurilmalar qo‘llaniladi. Tekshiruvda odam kallasining rentgen surati ham ishlatiladi. Boshning o‘ng yoki chap qiyasi tamonidan olingan shaklida ayniqsa yumshoq to‘qima soyasida peshona, burun, lab va boshqa ba‘zi nuqtalari aniq ifodalanadi. Rentgen surati boshning to‘g‘ri (fas) holatida olinsa unda yuzning shakli, o‘lchovi bosh chanog‘ining shakli - o‘lchovi kabi belgilar ifodalanadi.

11. Shaxsning tashqi qiyofa tuzilishi uni ko‘rgan, bilgan ayrim shaxslarning xotirasida saqlanib, xayoliy yuz tasviri tiklanishi mumkin. Tadqiqotimiz harakatlari, xususan tanib olish ana shu xayoliy tasvirlash usuliga asoslanadi. Identifikatsiyaviy tekshiruvda xayoliy chizilgan tasvir shaxsning foto yoki boshqa turdagi portreti bilan qiyoslanadi.

12. Shaxslarning tashqi qiyofa belgilari asosida o‘tkaziladigan ba‘zi bir tekshiruvlarni kriminalistlar bilan sud-tibbiyot soxasidagi (anatom, antropolog) mutaxassislar hamkorligida o‘tkaziladi. Tadqiqot hal qiladigan masalalarni to‘g‘ri va aniq tuzilishini ta‘minlashda, shuningdek, kerakli namuna, nusxa qoliplarini tayyorlashda mutaxassisning ishtiroqi va yordami beqiyosdir.

Shuningdek shaxsning biometrik xususiyatlariga va parametrlarga asosan shaxs yuzi tasviriga ko‘ra tanish, identifikatsiyalash, yuzdagi harakatni aniqlash, ma‘lumotlarni intellektual taxlil qilish masalalarida bevosita shaxs yuz tasvirining haqiqiylikini tasdiqlash uslublarining asosiy tamoyillariga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gonsales R. Prinsipi raspoznavaniya obrazov. M. Mir. 1978. -412c.
2. Turapov U.U., Muldanov F.R. Analysis of criteria for image processing and recognition on the basis of informative and strong signs of personal face structure.

//Internasional conference AIR publishing. ICPPMS-2021@gmail.com. Skopus&Web of Science indexed.

3. Турапов У.У., Нуржанов Ф.Р., Мулданов Ф.Р., Хурамова Ф.У. Анализ разработка алгоритмов системы идентификации изображения лица личности.//Научно-практический журнал «ЭНИГМА» за публикацию Е-журнале Ссылка на журнал Выпуск №25 (Сентябрь 2020). стр.170. Сайт: <https://enigma-sci.ru>

4. U. U.Turapov, F.R. Muldanov.Shaxs yuz tasvirini identifikatsiyalashda robot ko ‘z analizatori tizimi yaratish muommalari va masalaning qo ‘yilishi.Ilm-fanvata'lim 2 (1 (16)).129-131 bet.

5. ФРМулданов.

Видеотехнологиялардароботко ‘занализаторитизимниятинингматематик, алгоритмиквадастурийта’миноти.PEDAGOGSjurnali 15 (2), 89-103

6.U. U.Turapov, F.R. Muldanov.Analysis of criteria for image processing and recognition on the basis of informative and strong signs of personal face structure. PEDAGOGS jurnali 15 (1), 205-213 bet.

7. У.У. Турапов, Г.УЖураев, Ф.РМулданов, ААГулиев.

Об’ектнингкирувсхивасхиқувсхипараметрларинитартибгасолишмуоммалари. Механикаитехнология, 237-242 bet.

